

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

XORIJY TILLARNI O`RGANISHNI OMMALASHTIRISH AGENTLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XORAZM MA`MUN AKADEMIYASI

*“MADANIYATLARARO MULOQOT: TILSHUNOSLIK,  
ADABIYOTSHUNOSLIK, FOLKLORSHUNOSLIK VA  
TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI”*

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO`PLAMI

URGANCH, 9-10 IYUN 2021 YIL

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2-martdagi  
“Mamlakatimizda xalqaro, ilmiy va ilmiy-texnikaviy konferensiyalarni o'tkazish rejasini  
tasdiqlash” to'g'risidagi №78-f sonli qarori asosida  
**XORIJIY TILLARNI O`RGANISHNI OMMALASHTIRISH AGENTLIGI**  
tomonidan o'tkazildi.

**Madaniyatlararo muloqot: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va  
tarjimashunoslikning dolzarb masalalari,** Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari to'plami,

Uganch, 9-10 Iyun 2021 y. – N.: Xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish Agentligi,  
2021. – 245 b.

*“The authors are responsible for the content and reliability of the articles. Opinion of  
editorial board may not coincide with the views of the article's authors”*

*“За содержание и достоверность статей ответственность несут авторы. Мнение  
редакции может не совпадать с мнением авторов статей”*

**UO`K:41  
M 14**

***TAHRIR HAY'ATI:***

***XORIJIY TILLARNI O`RGANISHNI OMMALASHTIRISH AGENTLIGI***

*Tadjibaeva Dilbar Axmedovan  
Ogay Mukaddasxon .Xalbaevna  
Xan Svetlana Sergeyevna  
Sulaymonov Murodxon Maxamadxodjayevich  
Nurmatova Nazira Adxamjanovna  
Elmuradova Gulrux Karimalievna  
Sattorov Abduqodir Abduqahhorovich*

***TEXNIK MUHARRIR:***

*Sulaymonov M.M.*

***TAQRIZCHI:***

*f.f.n. professor Iriskulov M.T.*

cas en profitant de mon expérience de deux ans j'organise une petite réunion parmi les parents. Et je m'adresse à eux comme le professeur de français de mes propres phrases qui sont au fond de mon cœur comme ci-dessous: "Chers parents, je sais que vous pensez à l'avenir de vos enfants y compris moi aussi. Je suis une personne cultivée grâce à l'attention de mes parents, de mon père. Grâce à mes parents je suis le professeur aimable de vos enfants devant vous aujourd'hui. Je ne regrette jamais de choisir le français. Écoutez vos enfants aussi, s'il vous plaît. Ils n'ont pas l'intention d'apprendre l'anglais. Honorables parents, votre enfant est très fort en français, votre enfant est très capable du français. Nous sommes ouzbeks mais votre enfant apprend avec enthousiasme une langue étrangère, la plus belle langue du monde, le français. Apprendre une autre langue, c'est acquérir une richesse supplémentaire et s'ouvrir d'autres horizons, personnels et professionnels. Imaginez, votre enfant parle français comme les Français. Les Français sont généreux, gentils. Donc un grand avenir attend votre enfant. Voilà les succès de vos enfants. Quel bonheur pour les parents, n'est-ce pas? "Après avoir écouté mes phrases, l'idée des parents changent positivement. Les parents aussi sont fous du français. Voilà le rôle du professeur à valoriser l'apprentissage du français. Car ma devise dans mon métier est" Un maître qui motive est un maître qui fait réussir". Quant à mes élèves comme le professeur de français je tâche d'apparaître une grande affection infinie sur le français dans le cœur des élèves. Cette affection doit être si forte aucun élève n'en pourra jamais abandonner. N'importe où, les élèves doivent se sentir une atmosphère de français et de confiance.

Qui peut aider les élèves quand ils ont des problèmes familiaux, scolaires? C'est bien sûr, c'est le professeur de français. Dans ce cas je dois savoir donner une bonne motivation et je tâche s'il est possible par mes phrases ci-dessous: "Tu es le meilleur élève, tu es le plus érudit en français, tu es le plus dynamique, imagine tu es en France après 5 ans. Car tu apprends une langue la plus largement parlée, la plus enseignée, la plus grande langue de communication internationale, une langue comme la langue de la culture, une langue la plus douce, le français. C'est pourquoi aussi ton cœur est beau. Ton avenir aussi sera excellent, je compte sur toi. Voilà le rôle du professeur de français pour le développement de cette langue. Premièrement le professeur doit apprendre à encourager les élèves. C'est le premier pas vers le développement du français. Pour conclure je peux dire que l'avenir du français est à nos mains. Luttons pour l'avenir du français. On dit que vivre ce n'est pas respirer, c'est agir. Agissons-nous! Enfin je terminerai sur cette phrase." Après la pluie il fait beau". J'en suis sûre.

### **LES LITTÉRATURES UTILISÉES:**

- (1) Dictionnaire franco-ouzbek. Tashkent. 2008 3. <http://ironie.free.fr/index.html>
- (2) Janine Courtillon -Elaborer un cours de Français langue étrangère. Hachette 2003.

**NAZAROVA G. P. – BuxDU**

### **JON TOLKIN ASARLARIDA MIFOLGIZMLAR ISHTIROKIDAGI MOTIV TURLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz adibi Jon Tolkinning mashhur "Uzuklar hukmdori" asaridagi mifologizmlar ishtirokidagi motiv turlari borasida bo'lib, muallif asardagi mifologizmlar va ularning ahamiyatini tahlil qilgan.

**Kalit so'zlar:** Irland va Kelt mifologiyasi, "Uzuklar hukmdori", "Xobbit", mifologizmlar, xobbitlar, elflar, gnomlar, orklar, entlar

Yigirmanchi asr ingliz adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri, ingliz yozuvchisi va shoiri, tarjimon va tilshunos, Oksford univyerstiti professori Jon Ronald Ruel Tolkin o'zining bir qator asarlari bilan mashhur bo'lib, uning "Uzuklar hukmdori" asari 2003 yili Buyuk Britaniyaning BBC korporasiyasi o'tkazgan barcha zamonlarning eng yaxshi romanlarini aniqlash bo'yicha so'rovnomaga natijalariga ko'ra birinchi o'rinni egallagan zamonaviy fantastika janrida yaratilgan nodir asarlardan biridir.

"Uzuklar hukmdori" trilogiyasi jahon adabiyotining yorqin asarlaridan bo'lib, muallifni butun dunyoga mashhur qilgan asar hisoblanadi. Tolkin asarlari qahramonlari asosan mifologik obrazlar ko'rinishida bo'lib, yozuvchi asarlarini Anglo-Sakson, Fin, Qadimiy Skandinaviya, Irland va Kelt mifologiyasi ta'sirida yaratgan degan qarashlar mavjud.[1,27] Tolkin "Uzuklar hukmdori" asaridagi yorug'lik va zulmat kuchlari o'rtasidagi kurash tasvirini yaratishda tarix, mifologiya, falsafa va jahon dirlari, shuningdek, birinchi jahon urushidagi o'z tajribalaridan ilhomlanib, o'zining xayoliy dunyosidan juda ko'p foydalangan. Qachonlardir "folklor" tyermini yaratuvchisi V.Toms Angliyaning obro'li "Te Ateneum" jurnaliga xat yozib, o'zining xuddi nemis adiblari aka-uka Grimmlar Gyermaniya uchun qilganidek Britaniya orollari mifologiyasini yaratish orzusi borligini aytgan. Ammo uning fikricha, bunga faqatgina "... qadimiy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, maqollar, balladalar va tor bir maydonda sepilgan don kabi juda ko'p kichik faktlarni to'plash orqali yerishish mumkin" ligini ta'kidlab o'tgan.[3,457] Bu faktlar esa yozma holda bo'lmasa ham, odamlar xotirasida albatta saqlanib qolganligini aytib o'tgan. Yigirmanchi asr o'rtalariga kelib, dunyo Tomsning orzusini to'liq amalga oshirgan kitobni ko'rdi. Bu asar nafaqat Britaniya orollari mifologiyasini qayta yaratdi, balki, oltmish yil davomida butun dunyo e'tiborini qamrab olgan "yangi mifologiya"ni dunyoga keltirdi. Tolkin ham o'z maktublaridan birida uzoq vaqtlardan beri kosmogonik va afsonaviy romantik hikoyalar to'plamini yaratish va uni vatani Angliyaga bag'ishlash orzusida ekanligini yozadi. Bu aynan Tolkinning "Uzuklar hukmdori" va "Xobbit" asarlaridir.

J.Tolkin odamlar, xobbitlar, elflar, gnomlar, orklar va shunga o'xshash mifologik obrazlar makon topgan O'rta Yerda bir sirli dunyo yaratadi va u yerda sodir bo'ladigan g'ayrioddiy voqealar kitobxonni hayratga soladi. Dunyoning mashhur romanlari orasidan o'rin topgan ushbu asar undan oldin yaratilgan mashhur "Xobbit" asari va yozuvchining vafotidan keyin mashhur bo'lgan "Silmarillion" asarlari bilan bir qatorda turadi. Aytish joizki, yozuvchining bir qator asarlari, jumladan, "Uzuklar hukmdori" trilogiyasi noreal voqealar va mifologik obrazlarga boy bo'lganligi sababli, dastlab, qattiq tanqid ostiga olinadi. Keyinchalik esa aynan shu asarlar yozuvchini mashhur bo'lishiga sabab bo'ladi.

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" fantastik janrda yozilgan asar bo'lib, dastlab u uch qismda nashr etilgan. Asarning birinchi qism "Uzuklar ittifoqi (*Te Fellowship of the Ring*, 1954)" deb nomlanib, undagi voqealar O'rta Yerning uchinchi asrda bo'lib o'tadi. Trilogiyaning ikkinchi qismi esa "Ikki qal'a" (*Te Two Towers*, 1955) hamda uchinchi qismi esa "Qirolding qaytishi" (*Te Return of the King*, 1955) deb nomlangan. Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarining asosiy qahramonlari insonlar bilan birga sehrgarlar, elflar, dvarflar, xobbitlar, orklar va trollar, ajdar va o'rgimchaklar, gigantlar va maxluqlar bo'lib, bu obrazlarning har biri asarni ommabop bo'lishiga o'z hissasini qo'shgan.

Ushbu asardagi sirli voqealar O'rta Yerda sodir bo'ladi. O'rta Yer 1,380,000 km<sup>2</sup> maydonni egallagan asardagi voqealar sodir bo'lgan to'qima joy nomi bo'lib, muallif o'zi bu joyning xaritasini yaratadi. Ammo joy nomining kelib chiqishi qadimiy afsonalar bilan ham bog'liq degan fikrlar ham mavjud. Tolkin o'z asarida bu joyni Qadimgi ingliz she'riyatida va Teutonik kosmogoniyalarda "o'rta-yer" yyerning o'zi bo'lib, ustida turgan osmon va pastidagi bo'shliq oralig'i yoki jannat va do'zax oralig'idagi muvozanatni saqlab turuvchi joy sifatida tasavvur qilinganligidan xabardor bo'lgan holda tanlagan bo'lishi ham mumkin. Vyertikal yo'nalihsda emas, balki tekis yer bo'lganligi sababli, O'rta Yer Shimoliy qutb muzliklari va janubning sahrolari o'rtasidagi yerlar yoki, muhimrog'i, Ezgulik va Yomonlik kurashadigan

jang maydoni deb ham tushunilishi mumkin. O’rta Yer xaritasida bir qator to’qima joy nomlari mavjud bo’lib, elflar makoni Eldemar (Eldamar) yoki Elvenhoum (Elvenome), Valar yoki “xudolar” makoni bo’lmish Valinor hududi va uning bosh shahri Valimar kabi nomlar Tolkinning yaratgan noreal joy nomlaridir.

Tolkien ushbu asarida xobbitlar mifologizmidan ko’p foydalanadi. Xobbitlar Yeriadorga shimoldan kelib, Shayer shahriga asos solishadi va 1601 yilni Uchinchi Asrning biringchi yili deb hisoblashadi. Xobbitlarning odatlaridan biri tabak chekish bo’lib, bu odatni ko’pchilik xobbitlarda va ularning qiroli Gandalfda ham kuzatish mumkin. Asarning etakchi obrazlari Rivendellning Yerlond kengashida tuzilgan to’rtlik jamoasi (The fellowship of the Ring) vakillari bo’lmish xobbitlar Frodo va uning sevimli yordamchilari Myer (Myeriadoc Brandybuck), Sem va Pippin (Pyeregrin Took) lardir. Frodo Baggins Beg Endning myerosxo’ri va Bilbo Bagginsning jiyani bo’ladi. Frodo amakisi Bilbo singari, o’zining sarguzashtli kunlarining boshlanishidan oldin ham turli xil voqealarga boy hayot kechiradi ammo Shayerning tinchligi va xavfsizligi uchun kurashga tayyor bo’ladi. Asarda Frodoning tashqi ko’rinishi haqida ko’p to’xtalib o’tilmagan bo’lsada, Gandalf Barlimen Buttyerburga yozgan xatida uni quyidagicha “qizil yonoqli boshqalardan ko’ra balandroq va sarg’ishdan kelgan, yorqin va umidga to’la ko’zli baquvvat yigit” sifat tasvirlaydi. Bilbo va Frodo asardagi boshqa xobbitlardan o’zining yerkinligi va boyligi bilan, elflar bilan yaqin do’stligi tufayli farqlanadi. Ya’ni, xobbitlarning ko’pchiligi asosan oilali va farzandli bo’lishganligi sababli mas’uliyati ko’proq bo’lgan va sayohat qilishga imkoniyati bo’lman. Xobbit Frodo boshchiligidagi to’rtlik asarning yana bir mifologizmi bo’lmish sehrli uzukni topish va Gandalfga qaytarish vazifasini bajarish uchun uzun sayohatga chiqadi. Bu sehrli uzuk kishini ko’rinmas bo’lish, tom ma’noda umrni uzaytirish, ya’ni, mavjud bo’lgan tanadagi kuch-qudratni uzoq muddatga saqlab qolish, ammo keyinchalik bu qudrat tana emira boshlash kabi xususiyatlarga ega bo’lgan. Uzukning yana bir xususiyatlaridan biri shundaki, u o’z manfaatlariga muvofiq ishlaydi va doimo o’z egasiga sodiq qoladi. O’z egasi sifatida esa uzukni taqib yurganmas, balki, folklor an’analariga ko’ra, uzukni yasagan kishiga o’z sodiqligini saqlab qolgan.

Asardagi kuchli yerkak obrazlari bilan birga, ayol ko’rinishidagi mifologik obrazlar ham o’z o’rniga ega bo’lib, shulardan biri Galadriel obrazidir. U asardagi Rianion kabi o’z jozibasi bilan yerkaklarni o’ziga maftun etadigan go’zal dunyoviy ayol elf ko’rinishida tasvirlangan. Tolkien asarda uni quyidagicha ta’riflaydi: “no less tall than the Lord ... clad wolly in white ... no sign of age was upon tem, unless in the depths of their eyes; for those where keen as lances in the starlight, and yet profound, the wells of deep memory” (II: 354). Her voice is “musical, but deeper than a women’s” (II: 357). It is soothing and comforting, lulling the Fellowship to peace after their long ordeal through Moria, similar to Riannon’s mystical birds. Galadriel oq libosga burkangan, Qioldan bo’yi past bo’lman, ko’zlarining chuquriga qaramay, yoshini bildirmaydigan ko’rinishi, qalbga orombaxsh etuvchi va kishi qalbini allalovchi Rianionning sehrli qushlariga o’xhash musiqali ovozga ega suv xudosi va Yer onasi sifatida asarda gavdalangan. Galadrielning domiy hamrohi sehrli kumush ko’zgu bo’lib, uning tabiiy kuchi va san’atining aksini ifodalovchi va mifologik asarlarda muhim rol o’ynagan buyum hisoblanadi. Ko’zgu orqali u o’zining elflarga xos sirli qobiliyatini namoyish etishda foydalanadi.

“Uzuklar hukmdori” asaridagi yana bir o’ziga xos mifologik obrazlardan biri entlardir. Entlar O’rta yerda yashovchi daraxt ko’rinishidagi mifologik obrazlar bo’lib, ular asarda qabila sifatida ta’riflangan. Ent so’zi Kelt, ya’ni, qadimgi ingliz tilidan kirib kelgan bo’lib, “ulkan, katta” ma’nolarini ifodalaydi. Entlardan biri hisoblangan Tribiyerd (Treebeard), ya’ni, “daraxtlar cho’poni” Fangorn o’rmonida makon topgan bo’lib, asar qahramonlari xobbitlar Myerri va Pippinning kurashlarida yordam byerib keladi. Asarda daraxtsimon mifologik obrazlarining ko’p turlarini uchratish mumkin. Masalan, Shayer atrofidagi Eski O’rmonda makon topgan yovuz niyatli Qari Majnuntol Odam, Moria eshiklarini qo’riqlovchi muqaddas daraxtlar, Lozloriendagi oltin bargli Mallorn (qoraqayinga o’xshagan) daraxtlari va shunga

o'xshash odamsimon daraxtlar, ya'ni, entlar asarda ko'p uchraydi. Entlar O'rta Yerning siyosiy hayotida ko'p yillar davomida hech qanday muhim rol bajarmaydi va faqatgina Entmut(entlar yig'ilishi)da yig'ilib, ayrim muammolarga echim topish jarayonida qatnashgan. Anglo-sakson tilida "mut"(moot) siyosiy masalalar muhokama qilinadigan va qaror qabul qilinadigan siyosiy yig'in bo'lib, Britaniya tarixida birinchi paydo bo'lган siyosiy majlis hisoblangan.

Xobbitlar va entlar qatorida ushbu asarning yana bir mifologik obrazi elflar bo'lib, Tolkien ushbu asarda insoniyat va elflar orasidagi uzviy bog'lanish borligini yaqqol namoyon etadi. Elflar boshqa mifologik obrazlardan farqli o'laroq, asarning eng boshidan muqaddimasigacha asosiy vazifa bajarib kelgan. Hatto Tolkinning elflarga bo'lган muxabbatini uning boshqa asarlarida, she'rlerida va birinchi yaratgan hikoyalarida ham uchratish mumkin. [2, 153] Ammo "Uzuklar hukmdori" asarida elflar faqatgina Uchinchi Asr oxirida o'zining yaxshi va yomon kunlari guvohi bo'lган qadrdon O'rta Yerni tark etish arafasida ko'rinish byerishgan. Elflar insoniyat tasavvuri mahsuli sifatida yaratilgan bo'lib, bolalar yertaklaridagi eng mashhur va sevimli mifologik pyersonajdir.

Asardagi mifologizmlardan biri orklar bo'lib, asar bosh qahramoni Frodoning sayohatlari boshlanishida va jarayonida orklar haqida bir necha marta eslatilgan. Muallifning izohiga ko'ra, "ork" so'zining kelib chiqishi qadimiylar bo'lib, shayton ma'nosini anglatgan va bu obraz O'rta Yerning eng qadimiylaridan bira bo'lган. Ular kamonsimon qiyshiq oyoqli, uzun qo'lli, qoziq tishli, past bo'yli ammo baquvvat tanali va tanasi yung bilan qoplangan badbo'y va yoqimsiz ko'rinishda tasvirlangan. Orklarning Tolkien ushbu asaridagi ko'rinishini qadimgi afsona va yertaklardagi ko'rinishiga mos ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Asarda orklarning yuqoridagi ko'rinishidan tashqari, boshqacha turlarini ham uchratish mumkin. Birinchi turdag'i orklar Sauronlarga tegishli bo'lib, asarda tasvirlangan urushlarning asosiy qatnashchilari bo'lган. Ular ulkan va shaytonsimon bo'lib, Moriyada Gandalf va boshqalar bilan qattiq kurashadilar. Orklarning yana bir turi Shimoliy orklar, ya'ni, ular faqat tunda harakatda bo'lib, yorug'likdan qo'rqadigan turidir. Asar voqealari davomida orklarning barcha turlari o'zaro kurashib, Rohan ularni tor-mor qilguncha jang qilishadi. Orklarning ichki nizolari ularning boshliqlari Sauron va Saruman orasidagi adovat natijasida kelib chiqadi va bu Xobbitlarga juda qo'l keladi. Sarumanga tegishli bo'lган orklar ulkan va kuchli bo'lsa, Sauronning orklari vahimali va xunuk ammo sehrgarlardan ham aqlliroq bo'lган. Umuman olganda, asardagi ork mifologizmi juda salbiy pyersonaj sifatida yovuzlik va adovat timsolida tasvirlangan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, asar muallifi Jon Tolkien zamonaviy ingliz adabiyoti namoyandasib bo'lishiga qaramay, "Uzuklar hukmdori" asarlarida mifologik obrazlardan keng foydalangan va shu orqali asarni ta'sirchanligini va fentezi janrini yanada ommalshtirihsfa erishgan. Asardagi har bir mifologizm uning badiiy estetik mohiyatini kuchaytirishga o'z hissasini qo'shgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

- (1) Kassandra Marie Perlongo. Mythic archetypes: Welsh Mythology in Tolkien's *Lord of the Rings*. B.A., San Diego State University, 2003
- (2) Michael N. Stanton - Hobbits, Elves, and Wizards. First published by Palgrave 175 Fifth Avenue, New York, 2001
- (3) Толкиен и его мир. Энциклопедия. Pdf.